

QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA MAMLAKATIMIZ TOMONIDAN OLIB BORILGAN ISLOHOTLAR

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich

Namangan davlat texnika universiteti dotsenti, i.fff.d. (PhD)

xulugbek1984@gmail.com

ORCID: 0000-0002-3589-373X

+998772881102

Nabiyeva Muhabbat Djabirxanovna

Namangan davlat texnika universiteti o'qituvchisi.

+998905990003

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga ta'sir etuvchi qishloq xo'jaligi tizimi o'rganib chiqilgan. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi tarmog'ini shakllanishida respublikamizdagi shart-sharoitlar tahlil qilinib, xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, paxta, g'alla, agroplatforma, klaster, texnologiya, mintaqqa, raqamli O'zbekiston.

Kirish

So'nggi yillarda agrar sohani tubdan isloh qilish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Uning samarasi o'laroq, ilgari kuzatilmagan yuksak natijalarga erishilmoqda. Bu jarayonda qishloq xo'jaligiga innovatsiya va ilg'or ishlanmalar, intensiv va resurs tejovchi texnologiyalar, umuman, zamonaviy fan-texnika yutuqlarining izchil tatbiq qilinayotgani muhim omil bo'lib xizmat qilayotir. Zero, yurtboshimiz aytib o'tganidek, qishloq xo'jaligini ilmiy asosda yo'lga qo'ymas ekanmiz, sohada rivojlanish bo'lmaydi.

Qishloq xo'jaligi sohasi yilning qaysi fasli bo'lmasin mashaqqatlarsiz faoliyat yuritish qiyin kechadi. Tabiatning injiqligi, suv resurslarining cheklangani deyarli doimiy tarzda fermer faoliyatiga sezilarli darajada o'z hukmini o'tkazib keladi. Eng muhimi, sohada hamisha muammolar yechimi izlanadi. Fermer bir qarich yerdan ham unumli foydalanishga harakat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolani tayyorlashda qiyosiy, tahlil qilish va tanlama kuzatish, statistik hamda ko'p omilli ekonometrik tahlil usullari, modellashtirish jarayonlarda iqtisodiy-matematik, noaniq to'plam nazariyasi, prognozlash va boshqa usullar qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar

Qishloq xo'jaligi tizimi mamlakatning asosiy bo'g'ini sanalgani bois, dehqon va fermerlarga yetarli darajada imtiyoz va imkoniyatlar taqdim etilmoqda.

Paxta va g'alla O'zbekiston hududida asosiy ekin maydoniga ega. 2023 yilda dehqonlarimiz 3 million 800 ming tonna paxta, 8,5 million tonna g'alla xirmoni yaratishga erishdi. Shuningdek, 15 million tonnadan ortiq sabzavot-poliz, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka yetishtirdi. Sohaning boshqa tarmoqlarida ham shunday o'sish kuzatilmoxda.

Raqamlardan tiyilgan holda, sohada erishilayotgan yuksalishlar omillariga to‘xtalib o‘tmoqchiman. Joriy yilda agrar sohada bir qancha ma’muriy islohotlar amalga oshirildi.

Soha boshqaruvidagi tarqoq funksiyalar, vazifalar va vakolatlar yagona tizimga uyg‘unlashtirildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni, xususan, chorvachilik va issiqxona xo‘jaliklarini, paxta-to‘qimachilik klasterlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hamda uzumchilik va vinochilik sohasini barqaror rivojlantirish, xomashyo bazasini kengaytirish va eksport hajmini oshirish, agrar sektorni zamonaviy, resurs tejamkor texnikalar bilan ta’minlashni rag‘batlantirish bo‘yicha yangi mexanizmlar joriy etildi.

Prezidentning 2023 yil 12 dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlарини янада ривојлантрішнинг қо‘шимча chora-tadbirlари то‘ғрисіда”gi PF-205-сон Farmoni qabul qilindi¹¹⁰.

2024 yil hosilidan boshlab:

➤ paxta xomashyosini yetishtiruvchi xo‘jaliklar va klasterlar o‘rtasida paxta xomashyosini yetkazib berish bo‘yicha fyuchers shartnomalari tuproq hosildorligi normativlari doirasida O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasining “paxta xomashyosi seksiyasi”da har bir hudud bo‘yicha alohida o‘tkaziladigan savdolar natijalariga ko‘ra tuziladi;

➤ fyuchers shartnomasiga muvofiq yetkazib berilishi lozim bo‘lgan hajmdan ortiqcha yetishtirilgan va klaster bilan fyuchers shartnomasi tuzmagan holda, o‘z mablag‘lari, shu jumladan jalg qilingan mablag‘lari va tijorat kreditlari hisobiga yetishtirilgan paxta xomashyosi yetishtiruvchilar tomonidan birja orqali tadbirkorlik sub’ektlariga sotiladi yoki (va) qayta ishlanadi.

Bunda: fyuchers shartnomasi bo‘yicha ortiqcha yetishtirilgan paxta xomashyosi fyuchers shartnomasi tuzilgan klasterga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotilishi mumkin;

➤ paxta xomashyosini qayta ishlashdan olingan paxta tolasi va ikkilamchi mahsulotlar (chigit, lint va o‘lik paxta) to‘liq hajmda birja orqali sotiladi.

Paxta hosilini sotib olish va sotish bo‘yicha yangi tizimning shaffofligini, to‘laqonli va adolatli ishlab ketishini hamda paxta xomashyosini yetishtiruvchilar manfaatdorligini ta’minlash bo‘yicha respublika shtabi tarkibi tasdiqlandi. Uning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

➤ paxta xomashyosini yetishtirish, saqlash, realizatsiya qilish va paxta xomashyosi yetishtirilishini moliyalashtirish ustidan nazorat mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

➤ paxta xomashyosi, paxta tolasi va ikkilamchi mahsulotlarni birja savdolariga chiqarish ishlarini tashkil etish;

➤ paxta xomashyosi, paxta tolasi va ikkilamchi mahsulotlarni birja savdolariga chiqarish hamda to‘lov larning amalga oshirilishi ustidan kunlik nazorat o‘rnatish;

¹¹⁰ <https://lex.uz/docs/-6692968>

➤ paxta xomashyosi, paxta tolasi va ikkilamchi mahsulotlarni sotib olish va sotish bo'yicha yangi tizimning shaffofligini, to'laqonli va adolatli ishlab ketishini hamda paxta xomashyosini yetishtiruvchilar manfaatdorligini ta'minlash.

2024 yil hosilidan boshlab paxta xomashyosini yetishtirish, paxta yig'im-terimi va xaridini Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasining kredit resurslari hisobidan moliyalashtirish tartibi joriy etilmoqda.

Moliyalashtirish ob'ekti	Hajmi (paxta xomashyosi qiymatining)	Stavka (shundan, bank marjasи 2 foiz)	Muddat (oy)	Imtiyozi li davr (oy)	Qaytarish shartlari
paxta xomashyosi xaridi bo'yicha yakuniy hisob-kitob uchun	80 foizigacha	yillik 10 foiz	10	6	oxirgi 4 oy davomida teng ulushlarda
ijara huquqi mavjud bo'lgan yer uchastkasida paxta xomashyosi yetishtirish uchun	60 foizigacha	yillik 10 foiz	24	18	oxirgi 6 oy davomida teng ulushlarda
ijara huquqi mavjud bo'lgan yer uchastkasida yetishtiriladigan paxta xomashyosining yig'im-terimi uchun	60 foizigacha	yillik 10 foiz	12	3	oxirgi 9 oy davomida teng ulushlarda

Xususan:

➤ fyuchers shartnomasi tuzgan yetishtiruvchi va urug'chilik sub'ektlariga har yili 1 oktabrdan boshlab, paxta xomashyosi yetishtirish uchun – paxta xomashyosi qiymatining 60 foizigacha yillik 10 foizda (shundan, bank marjasи 2 foiz) 14 oyga, shu jumladan 12 oylik imtiyozli davr bilan kredit ajratiladi;

➤ klasterlarga kreditlar ajratiladi: fyuchers shartnomasiga asosan yetishtiruvchilardan qabul qilingan paxta xomashyosi uchun to'lovning 80 foizi paxta xomashyosi qabul qilib olingan kundan boshlab uch ish kunidan kechiktirmasdan, qolgan qismi moliya yilining 31 dekabr kuniga qadar amalga oshiriladi;

➤ ajratilgan kredit mablag'lari hisobidan agrotexnik tadbirlar doirasida tovarlar (ishlar, xizmatlar), shu jumladan moddiy resurslar yetkazib beruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar yetishtiruvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi;

➤ yetishtiruvchilar, klasterlar va urug'chilik sub'ektlari kredit buyurtmalarini Qishloq xo'jaligi vazirligining "Agroplatforma" axborot tizimi orqali elektron shaklda taqdim etadi.

➤ Klasterlarni tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun talablar va yangilangan tartib joriy etilmoqda. Xususan, talabgor:

➤ to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (ip kalavasi, trikotaj mato, gazlama, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish, bo'yash) quvvatlarining kamida ikkita bosqichini yo'lga qo'ygan bo'lishi;

➤ O‘zbekiston hududida ro‘yxatdan o‘tgan va faoliyat yuritayotgan, tugatilish bosqichida bo‘lmagan, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilmagan va «yomon» kredit tarixiga ega bo‘lmagan hamda murojaat sanasida kredit (lizing, bank kafolati, akkreditiv) va soliqlardan muddati o‘tgan qarzdorligi mavjud bo‘lmagan bo‘lishi shart.

Bunda klaster faoliyatini tashkil etish istagida bo‘lgan talabgorlar ochiq va shaffof onlayn tanlov asosida tanlab olinadi. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasi esa tugatildi.

Klasterlar va boshqa to‘qimachilik korxonalari tomonidan paxta xomashyosi to‘liq elektron tarozi orqali qabul qilinadi hamda ishlab chiqarilgan paxta tolasini avtomatlashgan majburiy hisobga olish tizimi joriy qilinadi.

Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘lari, paxta, texnik chigit va qayta ishslashdan olingan mahsulotlarning muvofiqligini baholash organlarida texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash hamda metrologiya sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi yuzasidan bir yilda bir marta O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan davlat nazorati amalga oshiriladi.

2024 yil 1 mayga qadar elektron tarozi orqali qabul qilingan paxta xomashyosi va ishlab chiqarilgan paxta tolasini avtomatlashgan majburiy hisobga olish tizimini joriy qilish va uni “Agroplatforma” axborot tizimiga integratsiya qilish rejalashtirilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi vazirligiga Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda “O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasi bilan birgalikda 2024 yil 1 yanvardan boshlab:

- klasterlarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy qilish;
- klasterlarga nufuzli xalqaro auditorlik korxonalarini jalb qilgan holda ular faoliyati samaradorligi va moliyaviy ko‘rsatkichlarini mustaqil tashqi auditdan o‘tkazish topshirildi.

Klasterlarga qabul qilib olingan paxta hosili uchun elektron hisobvaraq-fakturada ko‘rsatilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini klasterlar tomonidan qishloq xo‘jaligi korxonalariga (fermer xo‘jaliklari) paxta hosili uchun to‘langan to‘lovga mutanosib miqdorda hisobga olishga ruxsat etiladi.

Klasterlarda qishloq xo‘jaligi korxonalari (fermer xo‘jaliklari) tomonidan yetishtirilgan paxta xomashyosini shartnomada belgilangan narxlarda sotib olish va o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan yakuniy hisob-kitobning 20 foizini moliya yilining 31 dekabriga qadar amalga oshirish majburiyati saqlab qolinadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2020 yil 6 mart kuni imzolangan “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi¹¹¹ qaror agrar sohada uzoq yillar davomida saqlanib kelayotgan stereotiplarni tubdan o‘zgartiradigan, xalqona qilib aytganda, bobodehqonlarimizning birini ikki qiladigan, kosasini oqartiradigan tarixiy hujjat bo‘ldi.

¹¹¹ <https://lex.uz/docs/-4756994>

Binobarin, bu orqali so‘nggi yuz yillikda dehqonlarning oyog‘iga tushov bo‘lib kelgan paxta bo‘yicha davlat buyurtmasi bekor qilindi, sohaga butunlay yangicha yondashuvlar kiritilib, amaliy harakatlarga yo‘l ochildi.

Mazkur hujjat, birinchi navbatda, O‘zbekistonda chinakamiga bozor iqtisodiyoti qaror topayotganini anglatadi. Ikkinchidan, fermerlar faoliyatida tub burilish yasaydi. Ya’ni ularda iqtisodiy manfaatdorlik hissi oshib, endilikda yer egalari mahsulot ishlab chiqarishda ham, narxlarni shakllantirishda ham bozor sharoitidan kelib chiqadi.

Mazkur xujjatga asosan irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarini tiklash, rekonstruksiya qilish, suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etish hamda suvsizlikka chidamli ekinlarni ekish orqali foydalanishga kiritish uchun investitsiyaviy shartnoma yoki davlat-xususiy sheriklik asosida 50 yilgacha bo‘lgan muddatga:

➤ qishloq xo‘jaligida foydalanishdan chiqib ketgan sug‘oriladigan yerlar va lalmi va o‘rmon fondi yerlari - O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va qishloq xo‘jaligi korxonalariga;

➤ yaylov, bo‘z, ko‘p yillik daraxtzorlar va boshqa yerlar - O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, qishloq xo‘jaligi korxonalariga va O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan investorlarga beriladi.

➤ yerdan foydalanuvchilarga qishloq xo‘jaligi ekinlarini mustaqil joylashtirish, yerga ishlov bermasdan ekin ekish va yerlarni ikkilamchi ijaraga berish huquqi beriladi;

➤ mazkur yer maydonlari maqbullashtirilmaydi, yer uchastkasi yoki uning bir qismi davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilishiga yerdan foydalanuvchi roziligi asosida sarf etilgan mablag‘larning bozor qiymati va olib qo‘yish sababli yetkazilgan zararning o‘rni to‘liq qoplanganidan so‘nggina ruxsat etiladi;

➤ ushbu yer maydonlarida barpo etiladigan infratuzilma ob’ektlarini (dala shiypon, mahsulotlar saqlanadigan omborxonalar, sug‘orish inshootlari va boshqalar) joylashtirishga ruxsat beriladi;

➤ yerdan foydalanuvchilarning ehtiyojlari uchun olib kelinadigan va respublikada ishlab chiqarilmaydigan xom-ashyo, materiallar, texnika, asbob-uskunalar, ehtiyyot qismlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda bojxona to‘lovleri (qo‘shilgan qiymat solig‘idan tashqari) to‘lashdan ozod qilinadi;

➤ qonunchilikda belgilangan imtiyozli davr yakunlanganidan so‘ng, yangidan foydalanishga kiritilgan yer uchastkasiga nisbatan 10 yil davomida ushbu yer uchastkasi foydalanishga kiritilgunga qadar belgilangan soliq stavkalari qo‘llaniladi;

➤ investitsiyaviy shartnoma yoki davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimda nazarda tutilgan hollarda Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan har bir gektar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni foydalanishga kiritish bilan bog‘liq xarajatlarning 50 foizi, lekin bazaviy hisoblash miqdorining 50 barobaridan oshmagan qismi qoplab beriladi;

➤ investitsiyaviy shartnoma yoki davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimda nazarda tutilgan hollarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan yerlarning suv ta’minoti tizimlarini qurish, rekonstruksiya qilish uchun jalb etilgan kreditlarning bir gektar hisobiga 40 million

so‘mdan oshmaydigan qismiga tijorat banklari tomonidan belgilangan foiz stavkasining 5 foizlik punkti qoplab beriladi;

➤ yer maydonlari investitsiyaviy shartnoma yoki davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim imzolanganidan so‘ng qonun hujjatlarida vakolat berilgan davlat organi (mansabdar shaxs)ning qaroriga asosan ajratib beriladi.

➤ yerdan foydalanuvchilarga qishloq xo‘jaligi ekinlarini mustaqil joylashtirish, yerga ishlov bermasdan ekin ekish va yerlarni ikkilamchi ijaraga berish huquqi beriladi;

➤ mazkur yer maydonlari maqbullashtirilmaydi, yer uchastkasi yoki uning bir qismi davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilishiga yerdan foydalanuvchi roziligi asosida sarf etilgan mablag‘larning bozor qiymati va olib qo‘yish sababli yetkazilgan zararning o‘rni to‘liq qoplanganidan so‘nggina ruxsat etiladi;

➤ ushbu yer maydonlarida barpo etiladigan infratuzilma ob’ektlarini (dala shiypon, mahsulotlar saqlanadigan omborxonalar, sug‘orish inshootlari va boshqalar) joylashtirishga ruxsat beriladi;

➤ yerdan foydalanuvchilarning ehtiyojlari uchun olib kelinadigan va respublikada ishlab chiqarilmaydigan xom-ashyo, materiallar, texnika, asbob-uskunalar, ehtiyyot qismlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda bojxona to‘lovlari (qo‘shilgan qiymat solig‘idan tashqari) to‘lashdan ozod qilinadi;

➤ qonunchilikda belgilangan imtiyozli davr yakunlanganidan so‘ng, yangidan foydalanishga kiritilgan yer uchastkasiga nisbatan 10 yil davomida ushbu yer uchastkasi foydalanishga kiritilgunga qadar belgilangan soliq stavkalari qo‘llaniladi;

➤ investitsiyaviy shartnoma yoki davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimda nazarda tutilgan hollarda Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan har bir gektar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni foydalanishga kiritish bilan bog‘liq xarajatlarning 50 foizi, lekin bazaviy hisoblash miqdorining 50 barobaridan oshmagan qismi qoplab beriladi;

➤ investitsiyaviy shartnoma yoki davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimda nazarda tutilgan hollarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan yerlarning suv ta’minoti tizimlarini qurish, rekonstruksiya qilish uchun jalb etilgan kreditlarning bir gektar hisobiga 40 million so‘mdan oshmaydigan qismiga tijorat banklari tomonidan belgilangan foiz stavkasining 5 foizlik punkti qoplab beriladi;

➤ yer maydonlari investitsiyaviy shartnoma yoki davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim imzolanganidan so‘ng qonun hujjatlarida vakolat berilgan davlat organi (mansabdar shaxs)ning qaroriga asosan ajratib beriladi.

Shunday tartib o‘rnatildiki, unga muvofiq:

➤ sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari maxsus muhofazaga olinib, ushbu yerlarni qishloq xo‘jaligidan boshqa maqsadlarga, shu jumladan sanoat va fuqarolik ob’ektlari (binolar va inshootlar) qurilishi uchun ajratilishiga yo‘l qo‘yilmaydi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan ajratiladigan yerlar bundan mustasno;

➤ qishloq xo‘jaligidan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun olib qo‘yiladigan sug‘oriladigan yerlar uchun kompensatsiya to‘lovi, olib qo‘yilayotgan yer maydonlari joylashgan joylarni hisobga oluvchi koeffitsientlar qo‘llanilmagan holda, xuddi shunday yangi yerkarni o‘zlashtirish uchun talab etiladigan mablag‘ning 10 barobari, lalmi yerlar va sug‘orilmaydigan ko‘p yillik daraxtzorlar egallagan yerlar, pichanzorlar va yaylovlar holatini tubdan yaxshilash bilan bog‘liq xarajatlarning 20 barobari miqdorida hisoblanadi.

Bunda sug‘oriladigan yerlar uchun kompensatsiya to‘lovining 90 foizi, lalmi yerlar va sug‘orilmaydigan ko‘p yillik daraxtzorlar egallagan yerlar, pichanzorlar va yaylovlar uchun kompensatsiya to‘lovining 95 foizi Respublika budgetiga hamda mos ravishda 10 va 5 foizi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastro boshqarmalarining maxsus hisob raqamlariga o‘tkaziladi.

Ushbu me’yor o‘zboshimchalik bilan yerkarning qishloq xo‘jaligi muomalasidan chiqishiga sabab bo‘lgan hollarda yetkazilgan zararni hisoblashda ham qo‘llaniladi:

➤ bunda hisoblangan mablag‘larning 95 foizi Respublika Davlat budgetiga va 5 foizi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ostidan nazorat qilish inspeksiyasi hamda uning hududiy inspeksiyalarining rivojlantirish jamg‘armasiga undiriladi;

➤ sug‘oriladigan yerlar hisobidan bog‘dorchilik, uzumchilik va boshqa ko‘p yillik daraxtzorlar hamda issiqxona xo‘jaliklarini tashkil etish uchun yer ajratish Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartib asosida amalga oshiriladi;

➤ yangi fermer xo‘jaliklari va suv iste’molchilari uyushmalari suvdan foydalanish joylarida suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan majburiy tarzda jihozlash sharti bilan tashkil etiladi;

➤ yer maydonlarini foydalanishga kiritish suvni tejovchi texnologiyalardan (tomchilatib, yomg‘irlatib, tuproq ostidan tomchilab sug‘orish va boshqalardan) foydalangan holda amalga oshiriladi.

Yana bir muhim tomoni, davlat buyurtmasining bekor bo‘lishi qishloq xo‘jaligining jozibadorligini oshirib, tarmoqqa katta miqdorda investitsiyalar oqimi kirib kelishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, bu tarixiy o‘zgarishlar davlatning tarmoqqa aralashuvini kamaytiradi.

Prezidentimiz qarori bilan mamlakatimizda paxta xom ashyosi yetishtirish, xarid qilish va sotishda erkin raqobatni ta’minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish hamda ushbu yo‘nalishda fermer xo‘jaliklari manfaatdorligini oshirishning yangi mexanizmlari belgilab berildi.

Jumladan, 2020 yil hosilidan boshlab, davlat tomonidan paxta xom ashyosi ishlab chiqarish va sotish rejasini belgilash va xom ashyo xarid narxini belgilash amaliyotidan voz kechildi. Paxta xom ashyosi yetishtiruvchilarga rayonlashtirilgan navlarni erkin tanlash huquqi berildi. Sertifikatlangan urug‘lik yetkazib berish saqlab qolinadi hamda bosqichma-bosqich Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Urug‘chilikni rivojlantirish markazi tarkibidagi urug‘chilik klasterlari va paxta-to‘qimachilik klasterlari zimmasiga yuklatildi.

Mahsulot yetishtiruvchilarda ixtiyoriylik asosida ekinlarni mustaqil joylashtirish, davlat idoralari aralashuvini bekor qilish, fermerlarga erkinlik berish bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilindi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga asoslanib, agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish hamda qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirishni moliyalashtirish tizimining tubdan isloh qilinishi ham o'z samarasini bermoqda.

Endilikda qishloq joylarida ham zamonaviy savdo, logistika markazlari, mahsulotni chuqur qayta ishlash, saqlash korxonalarining soni ortib boryapti. Pirovardida bular xalqimizni yil bo'yli sarxil meva-sabzavot bilan ta'minlash barobarida agrar sohaning rivojlanishiga va eksport imkoniyatlarining kengayishiga zamin bo'lib xizmat qilayotir. Joriy yilda meva-sabzavotlarni qayta ishlash quvvatlari 3,3 million tonnaga, agrologistika markazlari soni 76 taga va quvvati esa qariyb 1 million tonnaga yetkazildi.

2023 yilda mamlakatimiz sohibkorlari 80 ga yaqin xorijiy davlatga qiymati qariyb 1,5 milliard dollardan ortiq mahsulot eksport qildi. O'zbek dehqoni yetishtirgan turli noz-ne'matlar dunyoning barcha qit'alariga yetib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarida, jumladan, paxtachilik, g'allachilik, to'qimachilik, kasanachilik, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, pillachilikda 800 dan ortiq agroklaster faoliyat yuritib kelmoqda.

Paxta va g'allaning 100 foizi, meva-sabzavot mahsulotlarining 60 foizidan ortig'i aynan klaster usulida yetishtirilmoqda. Ishlab chiqarish jarayonida bu usul tobora takomillashtirilib borilmoqda.

Xulosa

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida yuzaga kelgan inqirozli hodisalarga qaramay, Jahon hamjamiyatining axborot komponentini shakllantirish jarayoni allaqachon boshlangan va ba'zi sohalarda sezilarli natijalarga erishilmoqda. Kelajakda bu tendensiyalar yanada kuchayadi va XXI asrda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning sezilarli darajada tezlashishini hisobga olsak, yaqin o'n yilliklarda Jahon hamjamiyatiga qo'shilish imkoniyatini beradi.

Foydalanimagan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 05.10.2020 yildagi PF-6079-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/5030957>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-mart, PQ-4633-son. <https://lex.uz/docs/-4756994>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlanishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 12-dekabr, PF-205-son. <https://lex.uz/docs/-6692968>

4. Abdulazizovich, K. U. (2022). Improving Methodological Approaches to Financial Asset Accounting. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(4), 56-62.

5. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirzayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. Tashkent" economics-finance"—2013.
6. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLIYAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(2), 82-86.
7. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent—2023.